

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATNLAR BILAN ISHLASHDA USULLARI

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi 65-umumta'lim maktabining oliy toifali

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Qurbonova Mashhura

ANNOTATSIYA O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar matnni yodlab olish, she'rlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, matnni tushunish, anglash, munosabat bildira olish ko'nikmalarini shakllantirish borasida mulohazalar bayon qilinadi. Yodakilik va takrorlash asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarga hech narsa bermasligi, boshlang'ich ta'limning o'rni to'g'ri anglansa, o'qituvchi tomonidan o'rgatilayotgan darslarning ahamiyati oshishi namunalari asosida ko'rsatib beriladi

KALIT SO'ZLAR: matn , matn bilan ishlash texnikasi , matn shakli, metodika, boshlang'ich sinf , o'qitish savodxonligi .

O'qish savodxonligiga o'rgatishda konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» - yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi" deganda ko'proq o'quvchining o'qish strategiyasini nazarda tutmoq muhim. Matn turiga hikoya, ertak, she'r, maqolni kiritsak, shakli kitob, gazeta, jurnal, telefon va boshqa narsalarni hisoblash mumkin. Demak, o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ehtiyojlari, qiziqishlari, o'rgangan

narsalari muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi. Xalqaro tadqiqotlarda matnni tushunish to'rtta jarayonga asoslanib baholanadi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir. Shunday qilib, tushunish jarayoni bir etap bilan cheklanib qolmasdan, bir necha sathlar bilan ishlash jarayoni hamdir. O'quvchi matn ichidagi aniq ma'lumotlarni ko'ra olsagina xulosa chiqara olishi, xulosa natijasida ma'lumotlarni talqin qila olishi va e'tirof etish yoki tanqid qilish hukmini ham o'zida paydo qilishi mumkin bo'ladi.

Matn mazmunini qisqartirib qayta hikoyalash va bayon yozish murakkab mantiqiy usullardan foydalanishni talab qiladi, shuning uchun ham u to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayonga nisbatan qiyin. Bunda matndan ikkinchi darajali o'rinlarni tushirib qoldirib, asosiy, muhim o'rinlar tanlab olinib, hikoya qilinadi. Buning uchun o'quvchining o'zi matnning asosiy mazmunini aniqlashi, bog'lanishli, izchil qayta hikoyalashi, uning hikoyasi matnni qisqartirish tarzida bo'lmasligi, o'zlashtirilgan matnning asosiy mazm unini o'z so'zlari bilan bera olishi zarur. Qisqartirib qayta hikoyalashga o'rgatish uchun bayon mazmunini qisqartirib tuzish oson bo'lgan hikoya tarzidagi matn tanlash tavsiya etiladi. Qisqartirib qayta hikoyalash elementlari 1-sinfdan kiritiladi. O'qilgan matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilardan uning bir qismini qisqa — bir gap bilan aytish so'raladi. Keyin o'quvchilarga matnning ikki qismini, nihoyat, butun matnni qisqartirib qayta hikoyalash tavsiya etiladi.

4-sinf darsligidagi Egamnazarov Nazarmatning “Buyuk mehring” she'rida uchraydigan ma'nosi o'ziga xos so'zlarni o'quvchilarga o'g'atishda bazi qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Masalan: **“Mo'rkon”, “serbar”, “fayz”, “surunkasi” so'zlarining ma'nosini izohlang.** Bu so'zlarimiz o'quvchi uchun qiyinlik tug'diradi, o'quvchilarning yaxshi tushunishi uchun quyidagi topshiriqlarni darsga joriy qilamiz.

O'quvchilarni o'ziga xos so'zlarni o'rgatishda quyidagi PIRLS tadqiqoti orqali amalga oshiriladi va 4-sinf o'qish kitobidan Buyuk mehring she'ri

Egamnazarov Nazarmat

BUYUK MEHRING

O‘zbekim, o‘zligim, hayotim, borim,
Munavvar olamda suyuk ko‘rking bor,
Turkiy el so‘zligim, ona diyorim,
Dillarda yangragan buyuk mehring bor.
Temurbek qadami senda ko‘rinur,
Muazzam azmingni sezmay bo‘lurmi,
Navoiy g‘azali dilrabo erur,
Onalik mehringni sevmay bo‘lurmi,
Osiyo bag‘rida tabarruk joying,
Olisdir tarixing, kechgan yo‘ling ham,
Dunyoga havasli gulshan chiroying,
Xotirda to‘siqli kechmishlaring ham.
Sen bizga istiqlol, joni jahonsan,
Erking-chun qanchalar qon to‘kmaganmiz,
Bag‘ri keng, o‘z so‘zli O‘zbekistonsan,
O‘zgalar oldida bosh egmaganmiz.
Sen dilda qo‘shiqsan, elga nur madhing,
O‘zbekim, o‘zligim, haetim, borim,
Jahonga namoyon qudratu ko‘rking,
Turkiy el so‘zligim, ona diyorim,
Yerlari muqaddas O‘zbekistonsan.

Topshiriqlar

- 1-topshiriq. Vatan haqida bilganlaringizni yozing.
- 2-topshiriq. She’rdagi turkiy el so‘zining ma‘nosi tushuntiring?
- 3-topshiriq. Milliy o‘yinlar haqida nimalarni bilasiz?
- 4-topshiriq. Milliy qanday bayramlarni bilasiz?
- 5-topshiriq. Qish fasli haqidagi tabiat o‘zgarishlari haqida so‘zlab bering?
- 6-topshiriq. Vatan haqida maqollar ayting.

Begona tuproq — devona tuproq.

Birovning yurtida bek bo‘lguncha,

O‘zingning yurtningda it bo‘l.
Bulbul chamanni sevar,
Odam — Vatanni.
Bulbulga bog‘ yaxshi,
Kaklikka — tog‘.
Vatan gadosi — kafan gadosi.
Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf.
Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.
Vatanga kelgan — imonga kelar.
Vatanga falokat — o‘zingga halokat.
Vatangado bo‘lguncha,
Kafangado bo‘l.
Vatandan yiroqlashgan — nomusdan o‘lar.
Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning — taxti.
Vatanning tinch — sen tinch.
Vatanni sotgan er bo‘lmas.
Vatanning vayronasi — Umrning g‘amxonasi.
Vatanning vayronasi — Umrning hayronasi.
Vatansiz inson — kuysiz bulbul.
Dindan chiqsang ham, eldan chiqma.
Dushmanga nafrati bo‘lmaganning
 Vatanga muhabbati bo‘lmas.
Yordan ayrilsang ham, eldan ayrilma.
Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar,
 Yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.
Ona yerning tuprog‘i — ona sutidan aziz.
Ona yurtning — oltin beshiging.
Ona yurtning omon bo‘lsa,
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas.

7-topshiriq. Mavzu asosida rasm chizing .

8-topshiriq. She'riy parchadan nimani tushundingiz mazmunini so'zlab bering:

Osiyo bag'rida tabarruk joying,
Olisdir tarixing, kechgan yo'ling ham,
Dunyoga havasli gulshan chiroying,
Xotirda to'siqli kechmishlaring ham.

9-topshiriq. "Zanjir" o'yini. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi. O'quvchilar bu so'z vatanga oid bo'lsa, shu so'zni topib aytadilar. So'z o'yini shu tarzda davom etadi.

1-variant: Vatan, yurt, Osiyo.

2-variant: _____

3-variant: _____

10 -topshiriq. Satrlarini tahlil qiling.

Temurbek qadami senda ko'rinur,
Muazzam azmingni sezmay bo'lurmi,
Navoiy g'azali dilrabo erur,
Onalik mehringni sevmay bo'lurmi,

11. Mazmunga mos so'z toping?

Temurbeksenda ko'rinur,
Muazzam azmingni sezmay bo'lurmi,
Navoiy g'azali dilrabo erur,
Onalik mehringni sevmay bo'lurmi,

A) oyni B) toshni D) qadami

Shuningdek, topshiriqlarning namunaviy javoblari ham keltirilmoqda.

Xulosa shuki boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qitish savodxonligi darslarida matnlar bilan ishlash texnikasini rivolantirishda avvola pedagog sifatida o'z bilimlarini rivojlantirilishi yangi qo'l kelingan metodlarni qo'llanilishi va zamonaviy texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil qilish va o'quvchilarga adabiyot na'munalarini tushuntirish orqali fikrlashini o'zgartirish va anglashlar asosida xarakterlarini o'zgartirish, yaxshi fe'l-atvor, oliyjanob qarashlarini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.
“English Teachers: How You Can Use STEAM in your Classroom By Jennifer Gunn”
<https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-english-classroom/>.
2. “What is the STEAM education system?” [https://www. Enteger.uz/steam](https://www.enteger.uz/steam).
3. “STEAM education for English learners”
<https://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners-education>.
4. “English teachers: How You Can Use STEAM in your Classroom By Jennifer Gunn” <https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-english-classroom/>.
5. B.To‘xliiyev , M.Shamsiyev, T.Ziyodova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent . “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-yil.
6. T. G‘offorova, Sh,Nundlayeva. O‘qish kitobi. 2-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent “Sharq” . 2012-yil.
7. N. Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent. “Moliya”, 2003-yil
8. T. G‘afforova va boshqalar “O‘qish kitobi”,
9. I-sinf.Toshkent . “Sharq”, 2013-yil
10. Karimov.I “Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz” 7-jild O‘zbekiston 1999-yil.
11. R.Jo‘rayev ,A. Zununuv. “Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarining integratsiyalash” Toshkent. Sharq 2005-yil.
12. T.G‘afforova “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Toshkent. “Taffakur”, 2011-yil.
13. Ona tili va o‘qitish savotxonligi 2-sinf
14. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent. 2020-yil 23-sentabr
15. O‘qitish savodxonligi 4-sinf, 1-qism Toshkent-2023-y